



CHET TILIDA NUTQIY KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISH XUSUSIDA

Muallif: Ergashova Feruza Yuldashevna ¹

Affiliyatsiya: Toshkent amaliy fanlar universiteti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15186927>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi vaqtda talabalarga o'rganayotgan chet tili bo'yicha nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, bu esa kasbiy yo'nalish doirasida til bilish, so'zlashuv ko'nikmalariga ega bo'lish va ijtimoiy-madaniy va kommunikativ- muloqot malakalarini takomillashtirishga xizmat qilishi hamda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda chet tilining ahamiyati oshib borishi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Chet tili, nutq madaniyati, nutqiy ko'nikma, o'qituvchi, ta'lim jarayoni, ko'nikma, gapirish mahorati, til tajribasi.

Chet tillarini o'qitish metodologiyasida o'qish an'anaviy ravishda nutq faoliyatining bilvosita turi sifatida belgilanadi, bu nutq faoliyatining boshqa turlaridan farqli o'laroq, ichkarida sodir bo'ladi. O'qish yozma matndan ma'lumot olishga qaratilgan. Nutq faoliyatining bu turi idrok va xotira (birinchi navbatda qisqa muddatli xotira) kabi muhim kognitiv aqliy jarayonlar bilan bog'liq. Bu aqliy jarayonlar axborotni qayta kodlashga qaratilgan.

Chet tilda nutqiy ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Chet til o'quv predmetini o'rganish shu til yordamida axborot olish va boshqalarga yetkazish ma'nosini bildiradi. O'zlashtirilgan axborotlar talabalarining bilim saviyalarini yanada oshirishdan tashqari ularning kasbiy malakalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Chet tilni amaliy egallash shu tilda nutqiy ko'nikma va malakalarni hosil qilish demakdir. Ko'nikmalar leksika, grammatika, talaffuz bo'yicha, malakalar esa tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv faoliyatlarida shakllantiriladi. Nutq faoliyatining yordamchi turi bo'lmish tarjimani o'rganish esa chet til ixtisosligi bo'yicha kasbiy malakani egallash, deb qaralishi mumkin[1]

Chet tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuvni nutq faoliyati turlari sifatida egallash alohida mashqlarni talab etadi. Til va nutq birliklari hisoblanmish so'z, jumla, matn kabilarni o'rganishda mashqlarning bajarilishi metodik jihatdan o'zini oqlaydi. Bu esa kasbiy yo'nalish doirasida til bilish, so'zlashuv ko'nikmalariga ega bo'lish va ijtimoiy-madaniy va kommunikativ-muloqot malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Nutq faoliyatini tashkil qiluvchi unsurlar – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor beriladi va tegishli ko'nikma va malakalar takomillashtiriladi. Talabalarining lug'at boyligini oshirishda iboralarni o'rganish alohida ahamiyatga ega. So'z va iboralar tilning ma'no ifodalaydigan asosiy

birligidir. Bu til birliklari aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, individning emosiya his-hayajonini bildiradi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini o'rganib so'z va iboralarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi yoki iste'moldan chiqib ketishi, ma'no taraqqiyoti, ma'no ko'chishi, ko'p ma'nolilik kabi hodisalarni o'rganadi. Shu ma'noda leksikologiya talabalar lug'at boyligini oshirishning metodik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va iboralarning ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'at boyligi qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi. Bu narsa o'z fikrini aniq, ravshan, ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun so'z boyligi, uning xilma xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim shartidir. Bundan tashkari agar siz qanday gapirishni o'rganishni xoxlasangiz, har kuni o'zingizda chet tilida gapirish rejasi bo'lishi kerak. Hamma mashqlarni ovozingizdan foydalanib bajaring. Grammatik mashqlar, o'qish mashqlari, hamma narsa ovoz chiqarib o'qilishi kerak. O'zingiz bilan gaplashing. Biron kimsa sizni eshitib qolishidan tashvishlanmang. Har kuni bittadan matn tanlab oling va shu matn ustida bir necha minut gapiring.

Chet tilni amaliy o'rganishda tor ilmiy sohadagi xorijiy manbalardan axborot olish, umumpedagogik, ijtimoiy-siyosiy va mutaxassislikka oid (masalan: meditsina, qishloq xo'jaligiga oid) matnlarni lug'atsiz va lug'at yordamida o'qiy olish va o'rganilgan material asosida og'zaki suhbatlashish va o'zgalarga axborot bera olish malakalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Talabalarning til tajribasi uch tildan yig'ilgan bilim, ko'nikma va malakalar (kompetentsiya) majmuasi (sintezi) bo'lib, uning hajmi, qo'llanish ko'lamini, o'zaro bog'liqligi masalalari metodikaning til tajribasini hisobga olish printsipiga kiradi. Masalan, chet tildagi "artikl" atalmish grammatik hodisani o'rgatish chog'ida, uning o'zbek tilida mavjud emasligi tufayli mazkur grammatik kategoriyaga oid artikl tushunchasi shakllantiriladi. Oqibatda o'quvchi/talabani til tajribasi endi chet tildagi "yangilik" bilan boyiydi [2].

Chet tilda matn ustida ishlash jarayonida yangi so'zlarni o'rganishda quyidagi texnika mos keladi:

- barcha yangi so'zlarni, eng yaxshisi kartochkalarga yozib borish; har bir so'z bitta kartochkaga yoziladi (old tomoniga nemischa – orqa tomoniga o'zbekcha);
- kartochkalarga imkon qadar ko'proq so'zga aloqador va mazmun jihatidan bog'liq matnlar yozilishi lozim: misollar, chizmalar, grammatik ma'lumotlar, fonetik eslatmalar, hatto chet tildagi yordamchi vositalarni yozib qo'yish mumkin;
- doimo kartochkalarni birma-bir ko'zdan o'tkazish lozim, o'zlashtirilgan kartochkalarni chetga qo'yish, hali o'zlashtirilmaganlarini yana yodlash lozim bo'ladi; hattoki o'zlashtirilgan so'zlarni ham vaqti-vaqti bilan takrorlab turish lozim;
- kartochkalarni har xil guruhlariga ajratish, juft so'zlar (masalan: sinonimlar, antonimlar) sifatida semantik qatorda o'rganish, qo'shimcha ma'lumotlar orqali to'ldirish va b.

Bir va undan ortiq tilni egallashdan qat'iy nazar talabada (har qanday kishida ham) muayyan til tajribasi hosil bo'ladi. Til o'qitishda ularni nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar tarzida talqin qilinadi. Nutqiy tarkib deganda, muloqot malakasi, ya'ni axborot yetkazish va o'zgalar fikrini idrok etib tushunish, lisoniy tarafida esa axborot olish va berish.

maqsadida til hodisalaridan foydalanish va, nihoyat, “lingvistik jihat”dan til hodisalariga doir bilimlar nazarda tutiladi. Har uch qism bir butun “til bilish” tushunchasini hosil qiladi [4].

Nutqiy mavzular o'rta maktab sharoitida (“Mening yurtim”, “Kun tartibi”, “Tili o'rganilayotgan mamlakat” haqida) chegaralangan bo'lsa, oliy o'quv yurti talabalari mazkur mavzulardan tashqari o'z sohasida ham muloqot yurita olishi kerak. Chet tili oliy o'quv yurtida esa nutqiy mavzular chegaralangan emas, chunki talabalar erkin muloqot olib borishni, hatto og'zaki/yoзма tarjima qila olishni o'rganadilar.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda chet tilining ahamiyati oshib bormoqda. Chet til o'qitishning psixologik, pedagogik va metodik aspektlari nafaqat xorij olimlari, balki yurtimiz olimlari tomonidan ham o'rganib kelinmoqda (J.J.Jalolov, T. Q.Sattorov, G.Mahkamova, S.S.Saydaliyev va b.). Chet tillarini o'qitish metodologiyasida o'qish an'anaviy ravishda nutq faoliyatining bilvosita turi sifatida belgilanadi, bu nutq faoliyatining boshqa turlaridan farqli o'laroq, ichkarida sodir bo'ladi. O'qish yoзма matndan ma'lumot olishga qaratilgan. Nutq faoliyatining bu turi idrok va xotira (birinchi navbatda qisqa muddatli xotira) kabi muhim kognitiv aqliy jarayonlar bilan bog'liq.

O'qishning har xil turlarini o'rgatishda, birinchi navbatda, o'qilayotgan narsani tushunish, ma'lumot olish ko'nikmalarini rivojlantirishni hisobga olish kerak, ularsiz chet tilida o'qishni haqiqiy kommunikativ deb hisoblash mumkin emas. O'qilgan narsani tushunishni osonlashtiradigan yoki to'sqinlik qiladigan psixolingvistik omillar nolingvistik universitet talabalariga o'qishni o'rgatishda katta rol o'ynaydi. Tushunish darajasini belgilovchi ob'ektiv omillar mavjud. Ob'ektiv omillarning birinchi guruhiga matnning axborot mazmuni bilan bog'liq bo'lgan omillar kiradi. Ikkinchi guruh omillari uning kompozitsion va mantiqiy tuzilishi bilan bog'liq. Nolisoniy oliy o'quv yurtida matnni o'qish ikkita darajadan iboratligi xususida fikr mulohazalar bildirilgan: 1) tilni tushunish darajasi; 2) mazmunni tushunish darajasi. Birinchi darajada til birliklarinig o'zaro bog'liqligi sodir bo'ladi. Ikkinchi darajada esa retseptiv – o'zga shaxs nutqini idrok etib, ya'ni o'qib yoki tinglab tushunishga erishiladi. Birinchi yo'nalish matn mazmuni haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'ladi. Ikkinchi yo'nalishda esa olingan ma'lumotni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi [6].

Ona tilidan keyin o'rganiladigan har qanday tilga “ikkinchi til” sifatida qaraladi. Respublikamiz ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'zbek talabalariga rus tili, rus talabalari uchun esa o'zbek tili “ikkinchi til” maqomida o'rganiladi. Ikkinchi tilni o'rganish ona tilidagi til tajribasiga suyanish bilan birga chet tilni o'rganishga muayyan ulush qo'shadi. Ikkinchi tilni o'zlashtirishda ham muayyan qiyinchiliklar kelib chiqishi tabiiy, ya'ni oldin o'zlashtirilgan ona tili hodisalari uni o'rganishga ijobiy (fatsilitatsiya) yoki salbiy (interferentsiya) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Interferentsiya hodisasi bo'yicha respublikamiz va xorij olimlari tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [5].

Til tajribasi, dastavval, ona tili ta'sirida shakllanadi, ikki va undan ortiq tilda so'zlashuvchilarda esa uning tegishli qatlamlari oshib boradi. Oqibatda, xotira va tafakkurda nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar rivojlanishiga olib keladi. Fikrni ifodalashda turli tillarga oid vosita va usullar ishga tushadi. Shu tufayli bir til doirasida ichki va tillararo salbiy (interferentsiya) yoki ijobiy ta'sir (transpozitsiya/fatsilitatsiya) xususiyatlariga ta'lim jarayonida farqlab yondashish muammosi paydo bo'ladi.

Talaba chet til o'rganishga kirishar ekan dastlab o'z ona tilisida muloqot yuritadi. Ona tilida o'zlashtirilgan og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarini chet til ta'limiga tatbiq etadi. Talabalar ikkinchi va chet tilni egallashda ona tilidagi til tajribasi, ya'ni ikki va uch tillilikni o'zlashtirishni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Nutqiy (malaka darajasida), lisoniy (ko'nikma shaklida) va lingvistik (til birliklari) hodisalar tilni puxta egallashga qaratilgan mashqlarning asosiy tizimini tashkil etadi. Ona tili yordamida o'rganilgan yoki o'zlashtirilgan bilimlar ikkinchi yoki chet til o'rganish chog'ida amaliy ahamiyat kasb etadi. O'z tilida shakllangan bilimlarni talaba o'zga til so'zlari yordamida o'zlashtiradi. Ona tili boshqa tillarni, xususan chet tilni o'rganishda asos vazifasini o'taydi

Nutqiy mavzularni tanlashda, albatta, o'qitish metodikasining muayyan mezonlariga asoslanadi: 1) mavzular nutq malakalarini shakllantirish uchun xizmat qilishi lozim; 2) o'qitish sharoiti va imkoniyatlarining mavjudligi hisobga olinadi; 3) mavzularni tanlashda o'zlashtirishning retseptiv va (re)produktiv xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Binobarin, og'zaki nutq va o'qish uchun alohida mavzular tanlanadi. Chet tilda nutq faoliyatining reproduktiv (gapirish, yozuv) va retseptiv (tinglab tushunish va o'qish) turlarini egallash bir-biridan farq qiladigan metodikani qo'llashni talab etadi. Bu esa chet tilni amaliy egallashda muhim ahamiyat kasb etadi[3]

Xulosa qilib aytganda, O'quvchilarda chet tilini o'rganish qobiliyatini oshirishda, ayniqsa ularning og'zaki nutqini rivojlantirish kabi usullardan ijodkorona foydalanish, talabalarda chet tilini o'rganishga chuqur zamin yaratadi. nutq materiali ustida ishlashning uch bosqichini ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, bu mahoratni shakllantirish bosqichi. Bu bosqichdagi barcha ishlar, gapirishni o'zlashtirishda, og'zaki amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, matndan yangi leksik material va yangi grammatik hodisa chiqariladi, buning asosida ikkinchi bosqichdagi ish albatta og'zaki, lekin har doim vizual va mustahkamlash bilan amalga oshiriladi, ya'ni. yozish, matn yoki iboralarni o'qish. Agar leksik o'qish ko'nikmalari shakllansa, unda vizual avans ishlatiladi. Ikkinchi bosqich - bu malakani oshirish bosqichi. U tuzilgan matn asosida amalga oshiriladi. Bu bosqichda gapirishni o'zlashtirishda ishlatiladigan matnni "og'zaki" deb atash mumkin, chunki u o'qishni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan matnlardan farq qilishi kerak. Eng muhimi esa bu jarayonda asosiy rol chet tili o'qituvchisining nutqi hisoblanadi. Sababi pedagog agar so'zlarni xato talaffuz qilsa, o'quvchilarda ham noto'g'ri talaffuz qilish va shunga o'rganib qolish ehtimoli yuqori. Shu sababdan ham to'g'ri talaffuz qilish va nutq madaniyati chet tili o'qituvchilari uchun juda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Концепция непрерывного образования по иностранному языку// газета Учитель Узбекистана”. – 1993. 28 июля –3 августа. – С. 2–3.
3. O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent-2003.
4. Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 192 б.

5. Шарапова С.И. Методика обучения студентов неязыкового вуза чтению профессиональных текстов с целью порождения различных форм вторичных высказываний (немецкий язык). Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ярославль, 2010. – 26 с.
6. Муслимов Н.А. Касб таълим ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари: Пед. фан. докт. ... дис. –Т, 2007. – 305 б.
7. Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. -2009. 159 с.
8. Sodiyev R.S. Ergashova F.Yu. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL VA USLUB MASALASI: TAHLIL, TASNIF, QIYOS mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. 2024 yil 30 noyabr. 35-36 betlar

